

## ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR


Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2022- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3 411,2 mlrd so'mni tashkil qilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,7 %ga ko'paydi.

Jami investitsiyalar hajmida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 14,5 %ni yoki 493,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2918,1 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 85,5 % o'zlashtirildi.



### Asosiy kapitalga investitsiyalar



**Markazlashgan investitsiyalar**

| <i>Moliyalashtirish manbalari</i>  | <i>Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da</i> | <i>O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da</i> |
|--|--|---|
| <i>Respublika byudjeti</i>   | 8,7 %  | 117,4 %   |
| <i>Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi</i> | 1,3 %  | 120,9 %   |
| <i>Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi</i>                                   | 1,4 %  | 34,3%   |
| <i>O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar</i>          | 3,1 %  | 326,6 %   |

**Markazlashmagan investitsiyalar**

| <i>Moliyalashtirish manbalari</i>                               | <i>Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da</i> | <i>O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da</i> |
|---|--|---|
| <b>Korxonalar mablag'i</b>                                      | 28,1 %   | 160,7 %   |
| <b>Aholi mablag'lari</b>  | 20,9 %   | 111,5 %   |
| <b>Boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar</b> | 27,9 %   | 78,6 %  |
| <b>Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarzlilar</b>          | 8,6 %  | 83,5 %  |
| <b>To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar</b>               | 2,7 %  | 21,9 %  |

2022- yilning yanvar-iyun oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 959,2 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 28,1 %ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 20,9 %i yoki 712,4 mlrd so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 91,0 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,9 %ni, jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 2,7 %ni tashkil etdi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, mlrd so'm




Shuningdek, tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 294,3 mlrd so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,6 %ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 83,5 %ni tashkil qildi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 106,2 mlrd so'm (3,1 % va 313,5 % punktiga ko'paydi), boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar 952,1 mlrd so'm (27,9 % va 64,7 % punktga kamaydi), Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan 297,1 mlrd so'm (8,7 % va 24,0 % punktga kamaydi), suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 42,8 mlrd so'm (1,3 % va 2,1 % punktga ko'paydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

## 2022- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

| Shahar va tumanlar | hajmi,<br>mlrd so'm | o'sish sur'ati | viloyatdagi<br>ulushi |
|--------------------|---------------------|----------------|-----------------------|
| Urganch shahri     | 857,7<br>mlrd so'm  | 102,2 %        | 25,1 %                |
| Xiva shahri        | 146,3<br>mlrd so'm  | 120,9 %        | 4,3 %                 |
| Bog'ot tumani      | 159,6<br>mlrd so'm  | 82,3 %         | 4,7 %                 |
| Gurlan tumani      | 139,3<br>mlrd so'm  | 88,6%          | 4,1 %                 |
| Qo'shko'pir tumani | 289,7<br>mlrd so'm  | 202,3 %        | 8,5 %                 |
| Urganch tumani     | 364,6<br>mlrd so'm  | 183,3 %        | 10,7 %                |
| Hazorasp tumani    | 159,4<br>mlrd so'm  | 103,0 %        | 4,7 %                 |


| Shahar va tumanlar | hajmi,<br>mlrd so'm | o'sish sur'ati | viloyatdagi<br>ulushi |
|--------------------|---------------------|----------------|-----------------------|
| Tuproqqal'a tumani | 202,3<br>mlrd so'm  | 119,7 %        | 5,9 %                 |
| Xonqa tumani       | 307,7<br>mlrd so'm  | 116,9 %        | 9,0 %                 |
| Xiva tumani        | 188,2<br>mlrd so'm  | 125,7 %        | 5,5 %                 |
| Shovot tumani      | 177,4<br>mlrd so'm  | 105,6 %        | 5,2 %                 |
| Yangiariq tumani   | 138,4<br>mlrd so'm  | 25,9 %         | 4,1 %                 |
| Yangibozor tumani  | 280,6<br>mlrd so'm  | 170,2 %        | 8,2 %                 |

2022- yil yanvar- iyun oylarida investitsiyalarning  
o'sish sur'atlari, %da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Qo'shko'pir tumanida - 202,3 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 289,7 mlrd so'm), Urganch tumanida - 183,3 % (364,6 mlrd so'm), Yangibozor tumanida - 170,2 % (280,6 mlrd so'm), Xiva shahrida – 125,7 % (188,2 mlrd so'm).

### Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so'm



Asosiy kapitalga investitsiyalarning viloyat bo'yicha yuqori ulushi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Urganch shahrida - 25,1 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 857,7 mlrd so'm), Urganch tumanida 10,7 % (364,6 mlrd so'm), Yangibozor tumanida 8,2 % (280,6 mlrd so'm), Xonqa tumanida 9,0 % (307,7 mlrd so'm).


## Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2022- yilning yanvar-iyunida 1767,1 ming so'm yoki 103,0 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Urganch shahriga to'g'ri kelib, 5 818,7 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,7 %ni tashkil etdi. Tuproqqal'a tumanida 3 555,7 ming so'm (yoki 116,0 %) va Yangibozor tumanida 3 128,1 ming so'm (yoki 165,7 %) darajada qayd etildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi,( %da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlarining ulushi 53,8 %, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari - 40,2 %, boshqa xarajatlarning ulushi 6,0 %ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so'm





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 520,3 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 25,8 %, ishlab chiqarish sanoati – 936,3 mlrd so'm (46,4 %), qurilish - 168,4 mlrd so'm (yoki 8,3 %), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash - 129,4 mlrd so'm (yoki 6,4 %), ta'lim - 127,2 mlrd so'm (yoki 3,7 %), uy-joy qurilishi - 496,0 mlrd so'm (yoki 14,5 %) va boshqa faoliyat turlari – 922,2 mlrd so'm (yoki 27,0 %).

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2022- yilning yanvar-iyun oylarida 1058,3 mlrd so'm o'zlashtirilib (dollar ekvivalentida 96,5 mln AQSH dollari), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,0 %ni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy tarkibida xorijiy investitsiyalar 139,5 mlrd so'mni tashkil etdi, shuningdek, 918,8 mlrd so'm xorijiy kreditlarga to'g'ri keldi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 91,0 mlrd so'mni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 106,2 mlrd so'mni, boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar – 812,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Urganch tumaniga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 46,8 %ni ta'minladi, Xonqa tumanida -42,8 %, Hazorasp tumanida - 38,9 % darajada kuzatildi.




**Xorijiy investitsiya va kreditlar**

|                            | <i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, mlrd so'm</i> |                                 | <i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, nisbatan %da</i> |  |
|----------------------------|--|---------------------------------|---|--|
|                            | <i>Jami:</i>   | <i>Shu jumladan, kreditlar:</i> | <i>Jamiga:</i>  | <i>Asosiy kapitalga investitsiyalar:</i> |
| <b>Xorazm viloyati</b>     | <b>1058,3</b>  | <b>918,8</b>                    | <b>100,0</b>  | <b>31,0</b>                              |
| <i>shahar va tumanlar:</i> |  |                                 |   |  |
| Urganch sh.                | 214,3  | 124,3                           | 20,2  | 25,0                                     |
| Xiva sh.                   | 34,0   | 34,0                            | 3,2   | 23,3                                     |
| Bog'ot                     | 34,9   | 34,9                            | 3,3   | 21,8                                     |
| Gurlan                     | 24,3   | 24,3                            | 2,3   | 17,4                                     |
| Qo'shko'pir                | 108,8  | 108,8                           | 10,3  | 37,5                                     |
| Urganch                    | 170,5  | 162,0                           | 16,1  | 46,8                                     |
| Hazorasp                   | 62,0   | 62,0                            | 5,9   | 38,9                                     |
| Tuproqqal'a                | 74,3   | 74,3                            | 7,0   | 36,7                                     |
| Xonqa                      | 131,7  | 131,7                           | 12,4  | 42,8                                     |
| Xiva                       | 41,9   | 41,9                            | 4,0   | 22,3                                     |
| Shovot                     | 39,2   | -                               | 3,7   | 22,1                                     |
| Yangiariq                  | 20,8   | 19,0                            | 2,0   | 15,1                                     |
| Yangibozor                 | 101,7  | 101,7                           | 9,6   | 36,2                                     |

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 31,0 %ni tashkil qildi.

## Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (mlrd so'm)



Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiy hajmiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 3,1 % yoki 106,2 mlrd so'mni, xorijiy investitsiya va kreditlar – 85,0 % yoki 1058,3 mlrd so'mni, shundan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya 91,0 mlrd so'mni tashkil qildi.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**  
Nashr uchun mas'ul: G.Xaitbayeva  
Telefon: (62) 224-65-22